

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

SULEYMANOV MUHAMMAD AMIN ERKIN O‘G‘LI

**ADAPTIV MOSLAMA YORDAMIDA GIMNASTIKACHILARNI HALQADA
BAJARILADIGAN MASHQLARGA O‘RGATISH USLUBIYATI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

**Pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doktor philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Suleymanov Muhammad Amin Erkin o‘g‘li

Adaptiv moslama yordamida gimnastikachilarni halqada bajariladigan mashqlarga
o‘rgatish uslubiyati 3

Сулейманов Муҳаммад Амин Эркин угли

Методика обучения гимнастическим элементам на кольцах с использованием
адаптивных устройств 25

Suleymanov Muhammad Amin Erkin o‘g‘li

Methodology for teaching gymnastic elements on rings using adaptive devices 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

SULEYMANOV MUHAMMAD AMIN ERKIN O‘G‘LI

**ADAPTIV MOSLAMA YORDAMIDA GIMNASTIKACHILARNI HALQADA
BAJARILADIGAN MASHQLARGA O‘RGATISH USLUBIYATI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD /Ped 2775 raqam bilan ro‘yxatga olingan

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning www.jtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	Eshtayev Sergey Anvarovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	Olimov Muxsinbek Sotivoldiyevich pedagogika fanlar doktori (DSc), professor Karimov Xojiakbar Axtamqulovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” “_____” soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino 3-qavat 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N. Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda gimnastika sport turida yetakchi sportchilarning erishayotgan yutuqlari zamonaviy sport gimnastikasining rivojlanish darajasini qat'iy belgilab bermoqda. Xalqaro arenalarda murabbiylar tomonidan olib borilayotgan faoliyat natijasida sportchilar ko'rsatayotgan murakkab-texnik harakatlarni takomillashtirish, ularni bir-biriga kombinatsion bo'g'liqligini yuqori sifatda mujassam etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. G'alaba qozonish va o'z mavqeini saqlab qolish uchun gimnastikachilar mashqlarini doimiy ravishda murakkablashtirishi, ularga zamonaviy hamda o'ziga xos elementlarni kiritishlari natijasida kunlik mashg'ulotlar uchun ko'p mashaqqat talab qilinmoqda. Bu, o'z navbatida, halqada bajariladigan mashqlarni o'rlashtirishda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni yangi ijodiy tayyorgarlik vositalaridan foydalanish zaruratini yaratmoqda.

Jahon sport amaliyotida mashq qilish usullari, yuklamalarning hajmi va shiddatini optimallashtirish, mashg'ulotlar ketma-ketligini shakllantirish, tanadagi funksional o'zgarishlar, harakat qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish usullari bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda halqada mashqlarni o'rgatish muammolarini hal qilishning turli yondashuvlari va usullari mavjud bo'lsada, halqalarda tebranish va statik elementlarni bajarishda istiqbolli va ratsional usullarni o'rgatishga qaratilgan izlanishlar ortib bormoqda. Shuningdek, bu harakatlarni adaptiv tuzilishga ega uskunalar yordamida elementlarni ifodali bog'lash kabi uslublar va vositalarni mashg'ulot jarayoniga modernizatsiyalash, olingan natijalarni o'z vaqtida tahliliy tavsiyalarga yo'naltirish hamda kerakli xulosalarni ishlab chiqish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, mamlakatimiz sportchilarining xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Aholi o'rtasida gimnastika sport turlarining ommaviyligini oshirish"¹ qarori. Gimnastika sport turlari (sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, trampolin, akrobatika) ommaviyligini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, xalqaro talab va standartlar asosida professional sportchilarni tayyorlash orqali milliy terma jamoalarimizning nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini ta'minlash bilan birga, xatolarning aksariyati asosiy harakatlarning texnik bazasini shakllantirish bosqichidagi texnik kamchiliklarning natijasidir, bu o'z navbatida asosiy texnik standartdan og'ishga olib keladi va konservativ xatolarga aylanadi. Shunday qilib, tezkor harakatlarni optimal texnik asoslarini o'zlashtirishning yuqori sifatini ta'minlaydigan mexanizmlar hali ham to'laqonli ochib berilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrda PF-449-son "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 3-noyabrda PQ-4877-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 14-martdan PQ-163-son "Gimnastika bo'yicha Oksana

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrda PF-449-son "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

Chusovitina sport mahorati maktabini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-son “2024-Parij shahrida (Frantsiya) bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-axloqiy rivojlanishda innovatsion g‘oyalar tizimini va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirildi.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Sport gimnastikasi turlari bo‘yicha dolzarb masalalarni tadqiq etishda mamlakatimiz mutaxassislari Sh.X.Xankeldiyev, A.K.Eshtaev, M.N.Umarov, S.A.Eshtaev G.M.Xasanova, D.X.Umarov, X.A. Karimov, M.S.Olimovlar tomonidan yosh sportchilarning tanasiga hajm shiddatlarida bajariladigan jismoniy yuklamalarning ta‘siri masalalari, musobaqadan oldingi o‘quv mashg‘ulot yig‘ini davomida o‘quv jarayonini rejalashtirish va yosh gimnastikachilarga mashqlarni o‘rgatish uchun maxsus harakat tayyorgarlik vositalaridan foydalanish masalalari o‘rganib chiqildi².

Mustaqil Davlatlar Hamdostligi soha mutaxassis olimlari L.Ya.Arkaev, N.G. Suchilin, Yu.K.Gaverdovskiy, Yu.V.Menxinlar o‘z tadqiqotlarida harakat qobliyatlarini tarbiyalash usullari, o‘quv mashg‘ulotlarning biomexanik xususiyatlari va yuqori malakali gimnastikachilarni maksimal sport holati darajasiga olib chiqish yo‘llarini tavsiflab berganlar³. Mutaxassislarning ko‘p yillik tadqiqotlari yuqori malakali sportchilarni tayyorlashni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib gimnastika jihozlarida mashqlarning ratsional va istiqbolli texnikasini o‘rgatish masalalarini hal qilmaydi.

Sport gimnastikasi sohasi yetakchi xorijiy olimlari E.Schlegel, C.R.Dunn, J.Savagelar tomonidan sport ixtisoslashuv bosqichida shug‘ullanuvchi

² Ханкельдиев Ш.Х. Педагогические особенности физического воспитания учащейся молодежи в регионах с жарким климатом: дис. док. пед. наук. – М., 1991. – 287 с. Эштаев А.К. Структура и распределение средств тренировок гимнастов 6-9 лет на начальном этапе подготовки: Автореф. дис. канд. пед. наук. / 2007. 8-10 с. Хасанова Г.М. Построение соревновательного мезоцикла юных гимнасток на этапе спортивного совершенствования: Автореф. дис. канд. пед. наук. / 2011. 28-36 с. Эштаев С.А. Моделирование соревновательной деятельности гимнастов 13-15 лет на этапе углубленной специализированной подготовки: Автореф. дис. док. фил. по пед. наук. / 2018. 31-42 с. Умаров Д.Х. Спорт такмиллашув боскичидаги гимнастикачиларнинг машгулот жараёнини комплекс назорат қилиш методологияси: пед. фан. док. дис. / Ч. 2022. - 206 б. Karimov X.A. TAnlangan sport turi bo‘yicha mutaxassislikka kirish // X.A. Karimov. Gimnastika, 2025. – 368 б. Olimov.M.S. O‘rta masofaga yugirish shiddati va uni nostandart yondashuv asosida shakllantirish. Monografiya. Ilmiy texnika axborot-press nashriyoti, T: 2019. -200 б.

³ Л. Я. Аркаев, Н. Г. Сучилин. Как готовить чемпионов: теория и технология подготовки гимнастов высшей квалификации // Л. Я. Аркаев, Н. Г. Сучилин. - М.: Физкультура и спорт, 2004. - 325 с. Ю. К. Гавердовский. Техника гимнастических упражнений: Попул. учеб. пособие // Ю. К. Гавердовский. - М.: Терра-Спорт, 2002. - 507 с. Ю.В. Менхин. Физическая подготовка в гимнастике // Ю. В. Менхин. - М. Физкультура и спорт, 1989. - 223 с.

gimnastikachilar bilan mashqlarni bajarish bo'yicha dastlabki ko'nikma va malakalarni shakllantirishni turli usullari tavsiflab berilgan⁴. Lekin halqada tebranish mashqlarini bajarish, statik holatni ushlab turish va bog'lanishlarni bajarish bo'yicha barqaror ko'nikmalarni shakllantirish uchun trenajor uskunalardan foydalanishni ilmiy asoslash muammolari (masalan, tebranish-tebranish, tebranish-statik-tebranish, kuch-harakat-kuch) amaliy o'rganilmagan.

Shunga qaramay, hali joylarda o'rganilgan maxsus adabiyotlarda biz halqada gimnastika mashqlarini o'rgatish uchun o'quv jarayonida adaptiv uskunalarini qo'llash, halqada mashqlar bajarish malakalarini shakllantirish ketma-ketligi va gimnastika mashqlarining texnikasini samarali vositalari va usullarini tanlash bo'yicha tavsiyalar kam ekanligi bunga yaqqol dalolatdir. Biroq gimnastikachilarni halqada bajriladigan elementlarga o'rgatish jarayonida o'quv snaryadlari ko'makchi (trenajor) dan foydalangan holda hech qanday tadqiqotlar o'tkazilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi: Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining V.I.37- Yuqori malakali va yosh gimnastikachilarning harakatlarni murakkab muvofiqlashtiruvchi gimnastika sport turlari (sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, trampolin, sport akrobatikasi, aerobika) bo'yicha o'quv jarayonini boshqarish, mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi adaptiv uskunalarini ishlab chiqish asosida gimnastikachilarni halqalarda bajariladigan tebranish va kuch mashqlar texnikasini o'zlashtirish samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

sport gimnastikachilarning halqada ishlanadigan mashqlarning parametrlarini hamda elementlarini o'zlashtirish metodikasini ishlab chiqish;

yuqori malakali gimnastikachilarda mashqlar bajarish vaqtini, texnikasini, quvvat zahirasini taqsimlash kabi texnik elementlar mezonlarini adaptiv moslama yordamida ishlab chiqish;

halqada tebranish va statik mashqlar texnikasini takomillashtirishga qaratilgan maxsus yordamchi mashqlarni darajasini aniqlash;

turli murakkablikdagi tebranish va kuch mashqlarini samarali o'rgatish uchun ishlab chiqilgan mashqlar kompleksini samaradorligini tajribada asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida yuqori malakali gimnastikachilarni halqada bajariladigan elementlarni maxsus talab doirasida o'rgatish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini halqada bajariladigan elementlarni o'rgatishda adaptiv uskunalaridan foydalanish jarayoni tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyot ma'lumotlarini o'rganish va tahlil qilish, anketa so'rovi, pedagogik kuzatish, gimnastika elementlarining biomexanik tahlili, pedagogik nazorat testlari, ekspert baholash usuli, pedagogik tajriba, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁴ Elfi Schlegel, Claire Ross Dunn / The Young Performers Guide to Gymnastics // Published by Firefly Ltd. 2012. 113 r. Jeff Savage / Top 25 Gymnastics Skills / Tips, and tricks. Enslow Publishers // Inc.2012.165 p.

sport gimnastikachilarning halqada ishlash parametrlariga mutanosib bo'lishi uchun bajariladigan elementlarni o'zlashtirish muddatini qisqartirish va harakatdagi bir toifa elementdan ikkinchi toifa elementlarga o'tishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish hisobiga halqada olib boriladigan texnik harakatlarni uzluksiz bajarish imkoniyati kengaytirilgan;

yuqori malakali sport gimnastikachilarini texnik xatolarini bartaraf etish uchun adaptiv moslama yordamida krest elementini o'zlashtirish vaqtini qisqartirish, qiymatini oshirish, aniq bajarish, quvvat zahirasini taqsimlash hisobiga maxsus elementlarni bajarish orqali yuqori ball yig'ish imkoniyatlari kengaytirilgan;

sport gimnastikachilarning maxsus dinamik harakatlarini takomillashtirish uchun halqada tebranish harakatlarini maxsus trenajor yordamida o'rgatish kompleksiga (yelka kamarida aylanish, katta aylanish, ikkitalik aylanish) elementlarni singdirish evaziga texnik elementlarni o'zlashtirish, yengil, o'rta va og'ir darajasini aniqlash imkoniyatlari oshirilgan;

sport gimnastikachilarning auksotonik harakatlarini takomillashtirish maqsadida mashg'ulotlarni tashkil qilishda halqalarda bajariladigan statik elementlarni og'irlik vazni sportchilar vazniga nisbatan taqsimlab mashg'ulotning asosiy tayyorgarlik qismida qo'llash hisobiga gimnastikachilarni kuch orqali bajariladigan maxsus elementlarni bajarish texnikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Barqaror bo'lmagan jihozlarda tebranish va statik gimnastika elementlarini bajarishda ishtirok etadigan qo'llar, yelka-kamari, yelka va gavda mushaklarining kuchini rivojlantirish uchun mo'ljallangan, gimnastikachilarning maxsus kuch sifatlariga mahalliy ta'sir ko'rsatadigan ko'p funksiyali trenajor ishlab chiqilgan va o'quv-mashg'ulot jarayoniga tatbiq qilingan;

Harakatlar dasturi hamda halqada bajariladigan elementlar va ularning birikmalar dasturini tavsiflovchi yetakchi biomexanik xususiyatlarga asoslangan tebranish va statik elementlarini o'rgatish uslubi sinovdan o'tkazilgan va o'quv-mashg'ulot jarayoniga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi jismoniy tarbiya nazariyasi va metodologiyasi sohasidagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari asosida ishda qo'llaniladigan yondashuv, tadqiqot natijalariga muvofiq qo'shimcha tadqiqotlar usullari, vazifa va tadqiqot tahlilini miqdoriy va sifat jihatidan ta'minlash, olingan tajriba ma'lumotlari va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan natijalarni matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gimnastika mashqlarini o'rgatish nazariyasi va metodologiyasi, halqada tebranish va statik elementlarning texnikasini samarali shakllantirish uchun qo'llaniladigan o'quv vositalarining miqdoriy va sifat xususiyatlari to'g'risida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, turli malakaga ega gimnastikachilarni o'qitish sifatini yaxshilash va istiqbolli elementlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartirish uchun ishlab chiqilgan yetakchi va tayyorgarlik mashqlari majmuasi orqali dastur bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, gimnastikachilarning halqada bajariladigan statik elementlarini o'rganish jarayonini optimallashtirish hamda sportchining elementni o'zlashtirish vaqtini qisqartirishdir. Halqada bajariladigan elementlar majmuasini qiymati baland bo'lgan statik elementlar bilan 65-75% ga to'ldirish va shu bilan birga elementlar majmuasini umumiy qiymatini oshirish.

Tadqiqot natijalarini joriy etilishi. Gimnastikachilarning halqada tebranish va statik elementlari texnikasini adaptiv turdagi o'quv moslamalaridan foydalanish yordamida takomillashtirish bo'yicha olib borilgan joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalari hamda ularning qiyosiy tahlili asosida:

sport gimnastikachilarning halqada ishlash parametrlariga mutanosib bo'lishi uchun bajariladigan elementlarni o'zlashtirish muddatini qisqartirish va harakatdagi bir toifa elementdan ikkinchi toifa elementlarga o'tishga qaratilgan metodikani qo'llash bo'yicha takliflar Samarqand hamda Farg'ona gimnastika sport turiga ixtisoslangan maktabining sport gimnastika mashg'ulotlariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 04-07-08/2022-son ma'lumotnomasi). Natijada, sport gimnastikachilarda halqada bajariladigan kombinatsiya yig'indisi 8,14% dan 14,3% ga yaxshilangan;

yuqori malakali sport gimnastikachilarini texnik xatolarini bartaraf etish uchun adaptiv moslama yordamida krest elementini bajarish vaqtini qisqartirish, qiymatini oshirish, aniq bajarish, quvvat zahirasi taqsimlash bo'yicha taklif va tavsiyalar gimnastika bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining o'quv mashg'ulot jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 04-07-08/2022-son ma'lumotnomasi). Natijada, gimnastikachilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirish uchun adaptiv moslama vositalarni qo'llash natijasida maxsus kuch tayyorgarligi 6,18%dan 12,8%ga, hamda sportchilarning texnik tayyorgarlik darajasi 7,34%dan 16,4%ga oshirilgan;

sport gimnastikachilarning maxsus dinamik harakatlarini takomillashtirish uchun halqada tebranish harakatlarini trenajor yordamida o'rgatish kompleksiga (yelka kamarida aylanish, katta aylanish, ikkitalik aylanish) elementlarni singdirishni qo'llash bo'yicha takliflar gimnastika bo'yicha Respublika ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxiralari maktabining sport gimnastika o'quv mashg'ulotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 04-07-08/2022-son ma'lumotnomasi). Natijada, gimnastikachilarning halqada bajariladigan elementlarni o'zlashtirish texnik qobiliyatlari 8,3% dan 20,8% ga, maxsus kuch sifatleri esa 9,13%dan 18,6%ga o'sish imkoniyati kengaytirilgan;

sport gimnastikachilarning auksotonik harakatlarini takomillashtirish maqsadida mashg'ulotlarini tashkil qilishda halqalarda bajariladigan statik elementlarni og'irlik vazni sportchining vazniga nisbatan taqsimlab mashg'ulotning tayyorgarlik qismida qo'llash bo'yicha takliflar Toshkent shahar gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining o'quv mashg'ulot jarayoniga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 04-07-08/2022-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quv mashgulot jarayoning halqada bajariladigan harakatlar zichligi 46,4%dan 69,2%ga, mashg'ulotning o'rtacha zichligi esa 47,4% dan 53,8% ga, kuch va maxsus kuch sifatleri 6,4% dan 12,8 % oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya materiallari va asosiy holatlari 3 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining mavzusiga oid bo'lgan 13 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bobdan iborat bo'lib, 115 sahifali matn, 17 ta rasm, 13 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Gimnastika mashqlari texnikasini o'rgatishda adaptiv moslamalardan foydalanishning ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobida ko'pkurash turlarida gimnastika elementlarini o'rgatishning pedagogik xususiyatlariga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilingan. L.Ya. Arkayev, N.G. Suchilin, Yu.K. Gaverdovskiy, Yu.V. Menxinlarning tadqiqotlarida harakat qobiliyatini rivojlantirish usullari, mashg'ulotlarning biomexanik xususiyatlari, yuqori toifali gimnastikachilarni maksimal sport formasi darajasiga olib chiqish yo'llari tavsiflangan va ko'pkurash turlarida gimnastika mashqlarini o'rgatishda trenajordan foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Xorijiy mualliflar (Elfi Schlegel, Claire Ross Dunn, Jeff Savage) va mahalliy mutaxassislarining (A.K.Eshtayev, G.M.Xasanova, S.A.Eshtayev, M.N.Umarov, D.X.Umarov) ma'lumotlariga ko'ra, harakatlanuvchi tayanchda gimnastika elementlarini o'rgatishda o'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirish bosqichida jismoniy yuklamaning turli parametrlariga alohida e'tibor berilishi va turli xil maxsus harakat tayyorgarlik vositalaridan foydalanishiga alohida e'tibor qaratish kerak, bu esa gimnastikachining barqaror harakat mahoratini to'liq shakllanishi uchun asosdir.

Mualliflar (Yu.K.Gaverdovskiy, V.A.Potop) o'z tadqiqotlarida gimnastikachilar mahoratining mustahkamligi ko'p yillik tayyorgarlik mashqlarini o'rganish orqali ta'minlanishini ta'kidlaydilar. Gimnastika elementlariga o'rgatishning mavjud usullar shundan iboratki, boshlang'ich o'rgatish jihozning balandligini, elementlarni bajarilish shartlarini osonlashtirish va boshqa tamoyillar asosida nostandart adaptiv moslama, trenajor va boshqa yordamchi vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, maxsus adabiyotlarni tahlil qilishdan ma'lum bo'lishicha, halqada bajariladigan mashqlarni samarali o'rgatish va gimnastika mashqlarini texnikasini

shakllantirish uchun mavjud vositalar va usullarni tanlash uchun adaptiv moslamalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar mavjud emasligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va uni tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot usullari, asosiy pedagogik eksperimentni tashkil etish va o'tkazish xususiyatlari, bajariladigan ishlarning ketma-ketligi va tuzilishi yoritilgan, usullarning har biriga qisqacha izoh, shuningdek foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda (2021-yil yanvardan 2022-yil dekabrgacha) adabiyot ma'lumotlari tahlili o'tkazilgan, tadqiqotning asosiy yo'nalishi hamda maqsadi belgilangan, tadqiqot maqsadlari shakllantirilgan va gimnastika bo'yicha malakali mutaxassislar orasida anketa so'rovi o'tkazilgan. Halqada gimnastika elementlarini o'rgatishning uslubiy xususiyatlarini aniqlash maqsadida gimnastikaga ixtisoslashgan sport inshootlarida o'quv-mashg'ulot jarayonining pedagogik kuzatishlari o'tkazilgan. So'rov asosida sport gimnastikachilarni halqada o'rganiladigan mashqlarini bosqichma bosqich o'rgatish kalendarini tuzish va taqqoslash.

Ikkinchi bosqichda (2022-yil yanvardan 2023-yil yanvarigacha) asosiy pedagogik tajriba Samarqand shahridagi gimnastika sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi, Respublika olimpiya va paraolimpiya zaxiralari sport internati, gimnastika sport turlari bo'yicha Respublika oliy mahorati maktabi va Farg'ona ixtisoslashtirilgan sport gimnastika maktabi. Tajribada 40 nafar sportchi qatnashgan, shulardan uchta guruh tashkil etilgan: nazorat guruhi 20 sportchi (Toshkent shahri), 1-tadqiqot guruhida 12 sportchi (Samarqand) va 8 sportchi (Farg'ona shahri) 2-nazorat guruhida ishtirok etishgan. Tajriba jarayonida gimnastikachilarning harakatli tayanchda (halqada) statik elementlar, kuch bilan harakatlar, tebranish elementlari va “tebranish-kuch-tebranish” turidagi elementlarni o'rgatish uchun maxsus trenajor moslamasidan foydalanish samaradorligi sinovdan o'tkazilgan, asosiy pedagogik tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarga ishlov berilgan.

Uchinchi bosqichda (2023-yil yanvardan – 2023-yil iyulgacha) dissertatsiya ishi, xulosalar, amaliy tavsiyalar yozilgan va rasmiylashtirilgan.



Dissertatsiyaning **“Ko'p funksiyali adaptiv moslama yordamida gimnastikachilarni halqada bajariladigan mashqlarga o'rgatish trenajorini yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlash”** deb nomlangan uchinchi bobida yetakchi murabbiylarning halqada gimnastika mashqlariga o'rgatish muddati va o'rgatish jarayonida o'quv moslamalaridan foydalanish bo'yicha fikrlarini aniqlash hamda ularga ketadigan vaqt muddatini o'rganish maqsadida anketa so'rovi o'tkazilgan. Anketa so'rovi doirasida mamlakatimizning yetakchi murabbiylari hisoblangan 47 nafar mutaxassislar bilan suhbat o'tkazilgan. Respondentlarning o'rtacha yoshi 36,9 yosh, o'rtacha pedagogik staj 13,5 yilni tashkil etgan. Mutaxassislarning 77% foizi tebranish elementlari va ularning ulanishlari, statik elementlar va ularning bog'lanishlari, halqada statik ko'tarilish va statik tushishlarini o'rgatishda o'quv moslamalarni qo'llash tarafdori, 19% samarasiz deb qolgan 4% esa keraksiz deb hisoblashgan.

To'plangan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash natijasida ushbu mashqlarga o'quv moslamalarini ishlatmasdan o'rgatish muddatini aniqlash bo'yicha so'rov ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida quyidagi o'rtacha qiymatlar olingan (1-rasmga qarang).

Gimnastikachilarning mashg'ulot jarayonida halqalarda bajariladigan mashqlarni o'rgatishda pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, murabbiylarning 82-89% past halqadan foydalanishi aniqlangan. Ammo ushbu yordamchi vositadan foydalanganda bir qator salbiy oqibatlar hisobga olinmagan:

- troslarning uzunligidagi farqi;
- mashq texnikasining o'zgarishi;
- kuch bilan o'tishlarni amalga oshira olmaslik;
- har bir alohida elementni o'rgatishda halqaning holatini tuzatish zarurati.

Bu holatlar harakatning texnik tuzilishini shakllantirish jarayonida zaruriy nazorat harakatlarini ta'minlamaydi hamda sportchining mushak xotirasida mashqning asosiy holati saqlab qolishi murakkablashadi.




1- rasm. Gimnastika mashqlarini o'rgatish jarayonida o'quv moslamalardan foydalanishda mutaxassislarning xulosasi natijalari

Mutaxassislarning anketa so'rovi natijasida quyidagi pedagogik vazifalarni hal qilish orqali o'rgatish samaradorligini oshirishga imkon beradigan o'quv moslamasini (adaptiv moslama) ishlab chiqish zarurati aniqlandi.

- asliga yaqin (halqa) sharoitlarda mashqning texnik ko'nikmasi va tuzilmasini shakllantirish jarayonini samarali boshqarish;
- xatolarni minimallashtirish va ularni operativ tuzatish;
- sportchilarning o'z harakatlarini samarali va ongli ravishda boshqarish qobiliyatini shakllantirish.

Halqada bajariladigan mashqlarni o'zlashtirish muddatiga kelsak, soha mutaxassislarning fikrlariga hamda sport gimnastikachilarning halqalarda bajaradigan umumiy mashqlardan dolzarb mashqlar to'plamini saralab va ushbu mashqlarni o'zlashtirish jarayoni hamda vaqtlari ham tahlil qilindi. Bu muddatlar (bir necha oydan 3-4 yilgacha) cho'zilishi mumkin. Shubhasiz, ular murabbiyning malakasi,


qo'llanilayotgan uslubiyatlar hamda yuklamalarga va sportchining tayyorgarlik darajasiga, yuklamalarning o'zlashtirish qobiliyatlariga ham bog'liqligi mubolag'a emas.



2-rasm. Toifalar kesimidagi halqada bajarladigan elementlar to'plami

Izoh 1.: Tebranish elementlar, statik elementlar, statik harakat statik elementlar, tushishlar.


Halqada bajariladigan elementlarning to'rt maxsus talab bo'yicha jadval foiz kesimida. Ushbu elementlarni respublikamizda kuchli gimnastikachilarning elementlar majmuasiga kiritishgan.



3- rasm. Halqadagi mashqlarning o'zlashtirish va trenajorlarsiz o'rgatish muddati


Shunday qilib, amaliy va nazariy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, samarali o'quv jarayoni uchun talablarga javob beradigan va gimnastikachining tanasini mustaqil ravishda harakatlanadigan sharoitlarni yaratadigan o'quv moslamani ishlab chiqish zarur degan xulosa ilgari qo'yildi.

Parametkik jihatdan turli o'lchamlar natijalariga tayangan holda o'quv trenajori (adaptiv moslama) ishlab chiqildi (6-rasmga qarang). Trenajor halaqada bajariladigan mashqlarni o'zlashtirishga ko'makchi vazifasini bajaradi.



4-rasm. Halqalarning turli turlari

Halqada bajariladigan mashqlarning sportchilarga bo'lgan qulayliklarni qo'shimcha uskunalarda biomexanik tahlili va gimnastikachilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini pedagogik kuzatishlar halqalar hamda harakatining 3 ta asosiy algoritmini aniqlash imkonini berdi (5-rasmga qarang).




5- rasm. Halqalar harakatlanish algoritmi va diapazoni

Yig'ilgan ma'lumotlar hamda olingan parametrlarsa asosanib gimnastikachining tanasiga nisbatan uskunada harakatlantirish algoritmlariga amal qilgan holda, adaptiv turdagi trenajorini ishlab chiqildi.

Trenajor tuzilmasi ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga rioya qilgan holda halqadagi gimnastika mashqlarni bajarilishi biomexanik tahlil qilish ma'lumotlariga tayandik:

1. Tizimli ravishda takrorlanadigan mashqlar uchun foydalanish;
2. Murakkabdan o'g'ir murakkab mashqga o'tish;
3. O'rganilayotgan harakat tuzilishiga ko'ra mashqlar ko'nikmalarni shakllantirish;
4. Turli sharoit va balandliklarda ishlash.

Trenajor sportchilarning jismoniy tayyorgarligini texnik yordamni, yaxshilashni va mahoratini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Ular individual sportchilarga moslashtirilgan bo'lib, sportchilarga aniq maqsadlarga erishishda ko'makchi bo'la oladi.



6-rasm. Halqada bajariladigan mashqlarni o‘zlashtirishda yordamchi adaptiv moslama (trenajor)

O‘quv moslama yordamida halqadagi mashqlarni o‘rgatish dasturi ishlab chiqildi. Dastur 3 darajali mashqlar toifalariga bo‘linib ular umumiy qizdirish mashqlar, snaryatda ishlashdan oldin maxsus qizdiruvchi mashqlar hamda halqada kuch bilan bajariladigan statik elementlarga tayyorlanish yoki mushaklarni tayyorlash ko‘mplekslari o‘z ichiga oladi.

Halqada bajariladigan mashqlarga o‘rgatish dasturi o‘quv moslama yordamida uch darajali mashqlar to‘plami snaryatda ishlashdan oldin maxsus qizdirish komplekslari va maxsus jismoniy komplekslarini o‘z ichiga olgan (7-rasmga qarang).



7-rasm. Darajalar sportchining qaysi holatlarda adaptiv moslama trenajordan foydalanishiga yordam beradi

Halqada bajariladigan mashqlarni o‘zlashtirish adaptiv moslamadagi bajariladigan mashqlarning darasini aniqlashga qulaylik yaratish maqsadida ularni uch bosqichga bo‘lib oldik, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy va kombinatsion qobiliyatlari orqali foydalanish darajasi belgilanadi.

Tadqiqotimizda umumiy jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlashda quydagi sinovlardan foydalanildi. Moksimon yugurish 10*10 nazorat guruhida o‘rtacha 53.4,±1.2 tajriba guruhida 53.0±1.7, arg‘amchida sakrash 1-daqiqa nazorat guruhida 139.6±8.7 ta, tajriba guruhida 140±8.2 ta, qo‘shpoyada qo‘llarni bukib yozish (30soniya ichida) nazorat guruhida 34.7±4.2 marta, tajriba guruhida 34.9±4.1 marta, turnikda tortilish nazorat guruhida 13.45±1.7 ta, tajriba guruhida 13.25±1.3 tani tashkil

qildi. Ushbu mashqlar sportchilarning halqada bajariladigan elementlarga tayyorgarlik bosqichi uchun asos bo'ladi.

1-jadval

Umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlarining tadqiqotdan oldingi natijalari

T/r	Mashqlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			t	P
		\bar{x}	σ	V%	\bar{x}	σ	V%		
1	Moksimon yugurish 10*10	53,4	1,2	2,04	53,0	1,7	3,24	0,97	>0,05
2	Arg'amchida sakrash	139,6	8,7	6,26	140	8,2	5,89	0,13	>0,05
3	Qo'shpoyada qo'llarni bukib yozish	34,7	4,2	12,1	34,9	4,1	11,6	0,15	>0,05
4	Turnikda tortilish	13,45	1,7	12,41	13,2 5	1,3	10,06	0,41	>0,05

Ushbu jadvalda sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlandi hamda natijalarning o'rta yig'indisi, og'ishi, va variatsiya hisobi kabi natijalar tahlil qilindi. Sportchilarni halqada bajariladigan mashqlarini o'rgatishdan oldin ikkinchi bosqich bo'lgan maxsus jismoniy sifatlar (kuch (statik, dinamik), portlovchi kuch, statik kuch) sifatlarini o'zida mujassam qilgan mashqlar saralab olinib, sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlandi hamda natijalarning o'rta yig'indisi, og'ishi, va variatsiya hisobi kabi natijalar tahlil qilindi darajalarini ham aniqlab olindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarining tadqiqotdan oldingi natijalari

T/r	Mashqlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			t	P
		\bar{x}	σ	V%	\bar{x}	σ	V%		
1	Halqada burchakdan, kuch bilan yuqoriga ko'tarilish (soni)	5,61	0,9	16,53	5,48	0,7	12,30	0,52	>0,05
2	Halqada orqaga gorizental osilish hamda tutish (soniya)	9,45	1,2	12,54	9,32	1,4	14,66	0,41	>0,05
3	Halqada oldinga gorizental osilish hamda tutish (soniya)	6,61	1,1	16,05	6,56	0,9	13,51	0,57	>0,05
4	Halqada orqaga va oldinga kuch bilan o'tishlar (soni)	7,48	0,7	9,73	7,67	0,8	10,1	0,80	>0,05
5	Halqada kuch bilan ko'tarilish (soni)	9,06	0,7	8,07	9,35	0,9	10,10	1,08	>0,05

Ushbu jadvalda sportchilarning maxsus jismoniy sifatleri aniqlanib bunda Halqada burchakdan, kuch bilan yuqoriga ko'tarilish nazorat guruhida $5,61 \pm 0,9$, tajriba guruhida $5,48 \pm 0,7$, Halqada orqaga gorizental osilish hamda tutish nazorat guruhida halqada $9,45 \pm 9,45$ tajriba guruhida $9,32 \pm 1,4$, Halqada oldinga gorizental osilish hamda tutish nazorat guruhida $6,61 \pm 1,1$, tajriba guruhida $6,56 \pm 0,9$, Halqada orqaga va oldinga kuch bilan o'tishlar nazorat guruhida $7,48 \pm 0,7$, tajriba guruhida $7,67 \pm 0,8$, Halqada kuch bilan ko'tarilish nazorat guruhida $9,06 \pm 0,7$, tajriba guruhida $9,35 \pm 0,9$ natijalarni

tashkil qildi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi haqada bajariladigan mashqlarni o'rgatishda muhim ahamiyatga ega.

3-jadval

Gimnastikachilarning halqada bajarilgan elementlar qiymatlanishi tadqiqotdan oldin (n=40)

T/r	Toifalar	Guruh	\bar{x}	σ	V%	t	P
1	Elementlar qiymat yig'indisi (D)	Tajriba	4,15	0,2	5,08	0,59	>0,05
		Nazorat	4,11	0,3	6,50		
2	Elementlarning ayrilmalari (E)	Tajriba	7,04	0,2	5,52	0,43	>0,05
		Nazorat	7,00	0,3	4,91		

Ushbu jadvalda sport gimnastikachilar halqada bajarilgan elementlar yig'indisi (kombinatsiya)larini taqdim qilgan holda undagi barcha elementlarni (D) qiymatlari me'yoridan hisoblanib umumiy (D) tahlil qilindi. D toifadagi elementlar yig'indisida nazorat guruhi o'rtacha 4.15 ± 0.2 , tajriba guruhi 4.11 ± 0.3 , E toifasida esa nazorat guruhi 7.04 ± 0.2 , tajriba guruhi 7.00 ± 0.3 ballarni tashqik qildi. Tadqiqotda ishtirok etgan sportchilarning umumiy soni 40 ta barcha yig'ilgan ma'lumotlar matamatik-statik usulda (t-kriteriya talaba) hisobida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning "**Halqadagi elementlarni o'rgatishda adaptiv turdagi o'quv trenajordan foydalanish samaradorligini eksperimental asoslash**" deb nomlangan to'rtinchi bobida ishlab chiqilgan adaptiv moslama yordamida halqada gimnastika mashqlarini o'rgatish bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturini eksperimental sinovdan o'tkazish maqsadida pedagogik tajriba tashkil etilgan.

Asosiy pedagogik tajriba to'rt bosqichda o'tkazilgan. Birinchi bosqichda umumiy jismoniy tayyorgarlik natiralariga tayangan holda ularni natijalarini oshirish hamda harakarlarni texnik jihatdan yaxshilashga qaratilgan, ikkinchi bosqichda maxsus jismoniy sifatlarning natijalariga tayngan holda ularni texnik va taktik jihatdan sifatini yo'qotmagan holda oshirish dasturlari tuzib chiqilgan, uchinchi bosqichda sportchilarning halqalarda bajargan elementlarining bazaviy mashqlarni o'rganib chiqilgan hamda ularni takomillashirish maqsadida adaptiv moslama yordamida dastur ishlab chiqilgan, to'rtinchi bosqichda esa halqada bajariladigan elementlarni barcha elementlarini maxsus talab doirasida bo'lib olib har bir talab bo'yicha dastur ishlab chiqilga hamda sportchilarning kuch sifati bilan bo'g'liq elementlari takomillashtirilgan. Tadqiqotda mashqlarni o'rgatishda ishlab chiqilgan uslublarning samaradorligini aniqlash rejalashtirilgan.

Tajribani tashkil qilishda tajriba va nazorat guruhlari ishtirokchilarining tengligi tamoyiliga rioya qilingan. Shu maqsadda umumiy jismoniy safatlarni tekshirishda to'rtta jismoniy sinov ko'rsatkichlar bo'yicha dastlabki sinovlar o'tkazildi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, taqqoslangan guruhlar orasidagi farqlar sezilarli darajada farqlanadi(4-jadvalga qarang).

Nazorat guruhidagi ish doimiy murabbiy tomonidan qabul qilingan (an'anaviy) o'quv vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan.

Tajriba guruh bilan ishlashda umum e'tirof etilgan o'rgatish usullari bilan bir qatorda biz tomondan ishlab chiqilgan o'quv mashqlar majmuasi qo'llanilgan.


Gimnastikachilarni halqada bajariladigan mashqlar nafaqat umumiy jismoniy balki maxsus jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi. Sportchilarni musobaqa elementlarini o'zlashtirishda ularni xar tomonlama tayyorgarlik darajasini sinash lozimdir.

4-jadval

Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha tadqiqotdan keyingi natijalar tahlili tajriba oxirida (n=40)

T/r	Mashqlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			t	P
		\bar{x}	σ	V%	\bar{x}	σ	V%		
1	Moksimon yugurish 10*10	52,07	1,7	3,29	51,28	0,9	1,76	5,63	<0,001
2	Arg'amchida sakrash	144,8	9,4	6,47	154,1	7,2	4,65	5,77	<0,001
3	Qo'shpoyada qo'llarni bukib yozish	36,9	3,5	9,42	40,4	4,0	9,87	4,34	<0,001
4	Turnikda tortilish	14,2	1,5	10,86	14,85	1,2	8,25	3,95	<0,001

Sportchilarning tadqiqotdan keyin olingan natijalarida ko'rishimiz mumkinki, moksimon yugurish nazorat guruhi $52,07 \pm 1,7$ tajriba guruhi $51,28 \pm 0,9$ ni tashkil qilib 1,6% ga yaxshilangan, arg'amchida sakrash nazorat guruhi $144,8 \pm 9,4$, tajriba guruhi $154,1 \pm 7,2$ ni tashkil qilib 6,4% ga oshgan, qo'shpoyada qo'llarni bukib yozish nazorat guruhi $36,9 \pm 3,5$, tajriba guruhi $40,4 \pm 4,0$ natijasini tashkil qilib 9,4% ga ortgan, turnikda tortilish esa nazorat guruhida $14,2 \pm 1,5$, tajriba guruhi $14,85 \pm 1,2$ ni tashkil qilib 4,5% ga yaxshilanganligi aniqlangan (8-rasmga qarang).



8-rasm. Gimnastikachilarning maxsus mashqlar natijalari va ularning farqlari (tajriba oxirida n=40)

Sport gimnastikachilarning halqada bajariladigan mashqlarini bosqichma bosqich oshirish, ularni elementlar qiymatlariga mos ravishda tayyorlash maqsadida maxsus jismoniy mashqlar dastur tuzildi.


Ushbu maxsus dastur orqali gimnastikachilarning maxsus jismoniy sifatlari oshirildi va matematik-statistik tahlil qilindi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Gimnastikachilarni halqada bajariladiga maxsus mashqlar asosida olingan sinov natijalari (n=40)

T/r	Mashqlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			t	P
		\bar{x}	σ	V%	\bar{x}	σ	V%		
1	Halqada burchakdan, kuch bilan ko'tarilish (soni)	5,96	0,5	7,99	7,21	0,8	10,73	7,09	<0,001
2	Halqada orqaga gorizontaal osilish (soniya)	9,08	1,1	11,3	10,47	1,0	9,23	3,07	<0,001
3	Halqada oldinga gorizontaal osilish (soniya)	7,10	0,9	12,46	7,63	0,7	9,48	3,47	<0,001
4	Halqada orqaga va oldinga kuch bilan o'tishlar (soni)	9,66	0,8	8,7	12,66	1,2	10,0	3,22	<0,001
5	Halqada kuch bilan ko'tarilish (soni)	9,93	0,7	8,07	11,57	0,8	7,83	9,06	<0,001

Gimnastikachilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan dasturdan foydalanib tadqiqotdan keyin olingan natijalar tahlil qilindi, Halqada burchakdan, kuch bilan ko'tarilish nazorat guruhi $5,96 \pm 0,5$, tajriba guruhida $7,21 \pm 0,8$ tashkil qilib 12,09% ga oshgan, halqada orqaga gorizontaal osilish nazorat guruhi $9,08 \pm 1,1$, tajriba guruhi $10,47 \pm 1,0$ tashkil qilib 11,5% ga yaxshilangan, halqada oldinga gorizontaal osilish $7,10 \pm 0,9$, tajriba guruhi $7,63 \pm 0,7$ tashkil qilib 7% ga oshgan, halqada orqaga va oldinga kuch bilan o'tishlar nazorat guruhi $9,66 \pm 0,8$, tajriba guruhi $12,66 \pm 1,2$ tashkil qilib 3,1% ga yaxshilangan, halqada kuch bilan ko'tarilish nazorat guruhi $9,93 \pm 0,7$, tajriba gururhi $11,57 \pm 0,8$ tashkil qilib 10,6% ga yaxshilangan (9-rasmga qarang).



9-rasm. Gimnastikachilarni halqada bajaradigan maxsus mashqlarining tadqiqotdan keyin olingan yakuniy natijalar tahlili

